

## NUTQIDA KAMCHILIGI BOR BOLALAR RIVOJLANISHINING PSIXOFIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI

Andijon davlat pedagogika instituti  
Pedagogika va psixologiya kafedrası o‘qituvchisi  
Yoqubaliyeva Dilafro‘z Payzidin qizi  
Logopediya yo‘nalishi 202-guruh  
talabalari Komilova Moxinur Xasanboy qizi  
Jalilova Nilufar Bahodirjon qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19410593>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada nutqida kamchiligi bor bolalarning psixik xususiyatlari: diqqati, idroki, xotirasi, tafakkuri, nutqiy rivojlanishi, birlamchi, ikkilamchi nuqsonlar, nutqiy rivojlanish, korreksiya, kompensatsiya ishlari haqida ma’lumot beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Nutq, nutqiy rivojlanish, fonematik idrok, sezgi, diqqat, xotira, tafakkur, korreksiya, kompensatsiya.

**Abstract:** This article provides information about the psychological characteristics of children with speech disorders: attention, perception, memory, thinking, speech development, primary and secondary defects, speech development, correction, and compensatory work.

**Keywords:** Speech, speech development, phonemic perception, perception, attention, memory, thinking, correction, compensation.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются психические особенности детей с нарушениями речи: их внимание, восприятие, память, мышление и речевое развитие. Также приводится информация о первичных и вторичных дефектах, особенностях речевого развития, а также о коррекционной и компенсаторной работе с такими детьми.

**Ключевые слова:** речь, речевое развитие, фонематическое восприятие, ощущение, внимание, память, мышление, коррекция, компенсация.

Nutq buzilishida uchraydigan idrok jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari. Idrok qilishning fonematik buzilishi nutq kamchiligiga ega bolalarning barchasida kuzatiladi, bunda nutq-eshitish, nutq harakat analizatorlari orasidagi bogliqlik kuzatiladi. Ma’lumki, dizartriya va rinolaliyada uchraydigan nutq harakat analizatori funksiyasining buzilishi tovushlarni eshitish orqali idrok qilishga salbiy ta’sir korsatishi mumkin.

Bolalarda nutqning tovush tomonining rivojlanmasligi ikkilamchi nuqson sifatida tovushlarni talaffuz qilishga ham ta’sir korsatadi. Tovush talaffuz qilishdagi tlar orasidan nomi aytilganini paypaslab topish vazifasi beriladi. Bunday bolalarning mayda qo‘l motorikasi yaxshi rivojlanmaganligi tufayli taktil-harakat orqali idrok etish xususiyati ham buziladi. Bolalar savodini chiqarishda optik – fazoviy idrok rivojlanganligi muhimdir. Miyaning organik shikastlanishi bu idrokning buzilishiga sababdir. Ma’lumki, ular ong va chap tomonni farqlay olmaydilar. Demak, nutq almashtirishlar, artikulyatsion apparatidagi kamchiliklar fonematik qa’bul qilishga qarshilik qiladi. Belgilar, barmoqlar, artikulyatsiya a’zolari harakati, taktil harakat a’zolari bilan idrok etish. YE.M.Mastyukova ko‘rish orqali idrok qilishni tekshirganda nutqida kamchiligi bor bolalar me’yordagi bolalar kabi obrazlarni yaxlit idrok etishini aytadi. Biroq bunday bolalar qaror qa’bul qilishda uzoq vaqt sarflab, ozlariga ishonmay ikkilanib qoladilar, axborot ortgan sari predmet belgilarini ajratishi ham qiyinlashadi. Ular geometrik shakllarni shakliga emas, rangiga ahamiyat beradilar.

Kichik maktab yoshidagi nutqi toliq rivojlanmagan bolalarning ko’rib idrok etishini tekshirganda dizartriya, alaliya kabi nutq kamchiliklarida idrokning quyidagi buzilishlari kuzatiladi: optik, atrof-muhit tasavvurlar, yuzaga tegishli atrof-muhitni optik idrok etishning buzilishi bosh miyasi organik jaroxatlangan bolalarda uchraydi. Alalik bolalarda idrokning buzilganligi ayniqsa, rasmlar chizishda namoyon bo’ladi: rasm va tasvirlarda detallar miqdori kam, oddiy, sodda tasviraydilar.

Disleksik va disgrafik bolalarda idrokning buzilishi yozishida namoyon boladi. Tadqiqotlarda predmetlar orasidagi aloqalar, ular orasidagi faoliyat impressiv ya’ni ichki nutqning saqlanganligini bildiradi. Lekin ekspressiv ya’ni tashqi nutqda semantik tartib saqlanmaydi. Taktil-harakat a’zolari orqali idrok etish xususiyatlari R.L Ringel metodikasida tekshiriladi. Bunda bolaga qutichadagi predmeva idrok chambarchas bog’liq, har bir idrok nutqda ifodalanadi.

Diqqat ta’sir etuvchi analizatorning ko’rish, eshitish ishtirokida paydo boladigan murakkab jarayondir. Bolalar diqqatidagi kamchiliklar butun ish jarayonida kuzatiladi. Diqqatning qochishi, ya’ni bir narsadan ikkinchisiga, faoliyatning bir turidan boshqa turiga o’tishi qiyinlashadi. Motor-alalik bolalarda ixtiyoriy diqqat past darajada rivojlanadi va bu ularning faoliyatiga salbiy ta’sir qiladi. Parishonxotirlik diqqatni uzoq vaqt bir narsaga qaratmay diqqatning tez-tez bolinishidir. Shunday qilib, har qanday nutqiy kamchilikda diqqatni muntazam va tizimli rivojlantirish shart.

Xotira bu-individning o’z tajribasini esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni esga tushirishi hisoblanib, faoliyat davomida shakllanadigan jarayondir. Ulug’ muallim va shifokor Ibn Sino nutq va xotiraning o’zaro bog’liqligiga e’tibor berib bolalar birga bo’lganda doim bir-birlari bilan gaplashishini, va bu bilan o’z xotiralarini va nutqlarini rivojlantirishini ta’kidlagan. Nutqida kamchiliklarga ega bolalarda quyidagi xotira xususiyatlari kuzatiladi: ko’rish xotirasi ko’lami deyarli me’yorga to’g’ri keladi, geometrik shakllar esa bundan mustasno; eshitish xotirasining umumiy pasayishi; qayta tiklashning quyi darajasi; mazmunli, mantiqiy eslab qolishning nisbatan saqlanishi. Ammo bu turdagi bolalarda, mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan fikrlash, mantiqiy eslab qolish imkoniyatlari nisbatan saqlanadi.

Xotirani o’rganish uslubiyati. Qisqa muddatli xotirani tekshirishda bolaga shunday ko’rsatma beriladi: Har bir qatorga uchtdan son bo’lgan to’rt qator sonlar o’qiladi, bolalar eshitib tartib bilan eslab qolib, xayolda birinchi sonni ikkinchisi, ikkinchisini uchinchisi bilan, uchinchini to’rtinchi bilan qo’shish va olingan to’rtta yig’indini kerakli qatorga yozishdan iborat. Metodikada qo’llanadigan qatorlardagi raqamlar va qatorlar soni bolaning yosh xususiyatlariga qarab tanlanadi. Qatorlarni o’qish orasidagi vaqt yoshga ko’ra 15-16 sekund bo’lishi kerak. Uzoq muddatli xotiraning rivojlanganlik darajasini tekshirishda bir necha so’zlar: stol, doska, daftar, parta jurnal va hokazolar aytiladi. Tekshiruv 10 daqiqadan so’ng va uch kun o’tib amalga oshiriladi. Juftlikni eslab qolish metodikasi mantiqiy va mehanik xotirani rivojlanish darajasini o’rganish uchun mo’ljallangan. Bunda bolalarga ikki qator so’z beriladi. Birinchi qatordagi so’zlar orasida ma’noviy bog’lanishlar mavjud, ikkinchi qatorda esa bog’lanish yo’q.

L.S.Vigotskiy bola psixikasi har bir yosh bosqichida o’ziga xos bo’lishini, kattalar bilan hamkorlikda ruhiy funksiyalarni asta-sekin bolaning ichki funksiyalariga aylanib borishini aytib o’tgan.

Xulosa. Nutq kamchiligiga ega bolalarning ruhiy rivojlanish qonuniyatlari ruhiy rivojlanishdan orqada qolgan bolalar rivojlanishi qonuniyatlariga xos bo’ladi. Ular muloqotda qiyinchiliklarga duch keladilar, L.V.Vigotskiy ta’rifi bilan aytganda, strukturaviy nuqsonlar: birlamchi, ikkilamchi, nuqsonlar kelib chiqadi. Ikkilamchi nuqson qanchalik birinchisiga yaqin bo’lsa, uni korreksiyalash-tuzatish shunchalik murakkabdir. Masalan, nutq kamchiligiga ega bolalarning talaffuz nuqsoni eshitish buzilishi bilan bog’liq bo’lib, uni korreksiyalash mushkul

vazifadir, nutqning boshqa jihatlarini rivojlantirish hali eshitish buzilishi bilan u qadar yaqin aloqada emas, shu sababli ularni korreksiyalash birmuncha yengil bo’ladi. Ta’lim jarayonidagi dastlabki to’siq bu-birlamchi nuqson sanaladi. Keyingi bosqichlarda ruhiy rivojlanishning buzilishidagi ikkilamchi nuqsonlar bolaning ijtimoiy moslashuviga to’sqinlik qiladi.

Demak, buzilishning barcha turlarida ma’lumotni qa’bul qilish, qayta ishlash, saqlash va qo’llash qobiliyatining sustlashishi kuzatiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning klinik asoslari .D.R.Madazimova  
D.Rahmatullayevna Toshkent-2018

2. Nutqi to’liq rivojlanmagan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni logopedik tekshirish va o’qitish:metod qo’llanma.L.R.Mo’minova. O’qituvchi,1992-y

3. O’zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati nashriyoti Toshkent -2007 M. Ayupova

4. O’zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati nashriyoti Toshkent-2013 L.R.Mo’minova

5. Yoqubaliyeva Dilafro’z Payzidin qizi “Bo’lajak tarbiya fani o’qituvchilarini kasbiy-metodik rivojlantirishda sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish”. Qo’qon DPI. Ilmiy xabarlar 2025-yil 4-son C seriya

6. Yoqubaliyeva Dilafro’z Payzidin qizi “Bo’lajak tarbiya fani o’qituvchilarini kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishda sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish”. Sun’iy intellektni pedagogik ta’limga integratsiya qilish:muammo va yechimlar mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Andijon. 23-25 aprel 2025-yil.

7. Yoqubaliyeva Dilafro’z Payzidin qizi “Sun’iy intellekt – bo’lajak tarbiya fani o’qituvchilari ta’limini modernizatsiya qilish vositasi sifatida” Maktabgacha va maktab ta’limi 2025-yil, iyun, № 6-son.